

FOND BOZORIDA BARQAROR TALABNI SHAKLLANTIRISHDA INSTITUSIONAL INVESTORLAR ROLI

Shavkatov Behruz Rustam o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Bank ishi fakulteti talabasi

Fond bozori mamlakat iqtisodiyotida investitsiyalarni jalb qilish, kapitalni samarali taqsimlash va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Biroq fond bozorining barqaror va samarali ishlashida eng muhim omillardan biri — bozorda barqaror va doimiy talabni shakllantirish hisoblanadi. Shu jihatdan fond bozorida talabni shakllantirish masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentabrdagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida quyidagilar belgilab o'tilgan:

1. Moliyaviy axborotlarni almashish (FIX) protokoli yoki standartlashtirilgan API yordamida bozor ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga tarqatish va ichki tizimlar, jumladan buyurtmalarni boshqarish tizimlari (OMS), chet ellik investitsiya vositachilari va boshqalardan keladigan savdo buyurtmalarini qabul qilish imkonini yaratish.

2. Xorijiy investorlarga (tan olingan chet el banklari, shu jumladan kastodianlarga) davlat qimmatli qog'ozlari bozorida birlamchi diler faoliyatini olib borish imkoniyatini yaratish.

3. Davlat va korporativ qog'ozlarni hisobga olishning yagona depozitar tizimi yaratilgunga qadar "O'zbekiston respublika valyuta birjasi" AJ tomonidan chet ellik nominal saqlovchilar va investitsion vositachilarga o'z depozitar tizimida depozitar xizmatlarni ko'rsatish va davlat qimmatli qog'ozlar depo hisobvaraqlarini yuritish uchun sharoit yaratish [1].

Fond bozorida barqaror talab shakllanishida bir qator olimlar tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan:

A.Shleifer va R.W.Vishnylarning "The Limits of Arbitrage" (1997) nomli maqolasida Yirik institusional investorlar bozor samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular katta kapitalga va professional tahlil imkoniyatlariga ega ekanligini ta'kidlashgan [2].

Sh.Shodmonov ilmiy tadqiqot ishlarida bozor iqtisodiyotining nazariy asoslari bilan birga kapital va moliya bozorining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Toshkent fond birjasida amalga oshirilgan tahlillar natijasida 2025-yilning 3-choragida quyidagi natijalarga erishildi:

2025-yilning dastlabki 9 oyi yakunlariga ko'ra, umumiy savdo hajmi 14,00 trillion so'mni (\$1,09 mlrd) tashkil etdi, bu esa 2024-yilning 9 oyiga nisbatan 10,39 trillion so'mga, ya'ni 4 barobar oshganligini ko'rsatadi.

Ushbu hajmning 7,49 trillion so'mi (\$586,29 mln) yoki 53,52% qismi birja kotirovkasida mavjud qimmatli qog'ozlar bo'yicha amalga oshirilgan savdolar hisobiga to'g'ri keladi. Qolgan hajm esa tashkillashtirilgan ro'yxatga kiritilmagan, ya'ni birja tashqarisidagi savdo maydonchasi orqali shakllangan.

Umumiy tranzaksiyalar soni 328 375 tani tashkil etdi, bu esa 2024-yilning dastlabki 9 oyi bilan solishtirganda 68 285 tranzaksiya yoki 17,21% kamligini bildiradi. Shulardan 281 127 tranzaksiya birja kotirovkasidagi qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan, qolgan 47 248 tranzaksiya esa tashkillashtirilgan birja tashqarisi savdo maydonchasida bajarilgan.

1-jadval

Aksiya bozorida eng faol 10 ta qimmatli qog'oz (Main-Board) [3]

Emitent	Tikker	Yopilish narxi, (aksiya uchun so'm)			Savdo hajmi (mln so'm) bo'yicha tahlil		Tranzaksiyalar soni	
		03.01.2025	30.09.2025	2024	03.09.2024	03.09.2025	03.09.2024	03.09.2025
Aloqabank	ALKB	0,40	0,44	10,00%	98,44	46 441,38	3 307	13 957
Hamkorbank	HMKB	24,59	30,99	26,03%	1 658,80	18 878,76	12 209	9 698
O'zRTXB	URTS	3 600,00	4 510,00	25,28%	12 147,77	13 988,41	8 732	19 091
Universal bank	UNVB	9 000,00	8 597,00	-4,48%	9 125,91	8 976,21	1 143	678
Elektrqishloq qurilish	EQQU	369 000,00	301 000,00	-18,43%	5 857,43	7 538,51	164	181
O'zbektelekom	UZTL	3 911,00	5 894,00	50,70%	2 952,58	2 455,68	14 476	7 394
O'zmetkombinat	UZMK	4 181,00	3 750,00	-10,31%	5 203,64	1 878,24	7 103	3 506
Qizilqumsement	QZSM	1 495,01	822,90	-44,96%	1 792,78	1 758,19	8 443	12 505
Chilonzor buyum savdo kompleksi	CBSK	1,99	2,19	10,05%	1 481,57	1 401,79	13 206	15 509
O'zbekinvest	UZINP	1 100,00	1 207,00	9,73%	1 033,14	928,76	4 419	4 602

Kunlik o'rtacha savdo hajmi 74,49 milliard so'm (\$5,81 mln) ni tashkil etgan bo'lsa, kunlik o'rtacha tranzaksiya soni 1 747 tani tashkil qilgan.

Natijada, 9 oy yakunida UCI indeksi 7,01% ga oshib, 701,05 punkt darajasida yopilgan.

2025-yilning dastlabki 9 oyida aksiya bozoridagi savdo hajmi 6,83 trillion so'm (\$534,48 mln) ni tashkil etdi, bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,51 trillion so'mga yoki 3 barobar oshganligini bildiradi. Savdolar hajmining asosiy qismi, ya'ni 6,49 trillion so'm, naqd pulsiz hisob-kitoblar maydonchasi (Free of Payment Board, FoP) orqali amalga oshirilgan.

Kunlik o'rtacha savdo hajmi 36,34 milliard so'm (\$2,84 mln) ni tashkil qilgan bo'lsa, kunlik o'rtacha tranzaksiyalar soni 1 456 ta ni tashkil etdi.

Shuningdek, aksiya bozorining umumiy bozor kapitalizatsiyasi yil boshiga nisbatan 25,51 trillion so'mga yoki 11% ga o'sib, 267,93 trillion so'm (\$22,20 mlrd) darajasiga yetdi. Shu bilan birga, erkin aylanmadagi aksiyalarning (free float) bozor kapitalizatsiyasi 4,18 trillion so'mni tashkil etdi.

Fond bozori mamlakat moliya tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, iqtisodiyotga uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilish, kapitalni samarali taqsimlash hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda katta ahamiyatga ega. Fond bozorining barqaror rivojlanishi esa unda shakllanadigan talab va taklif muvozanatiga, ayniqsa investorlarning faol ishtirokiga bevosita bog'liqdir. Shu jihatdan qaraganda, institutsional investorlar fond bozorida barqaror talabni shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Bundan tashqari, institutsional investorlar korporativ boshqaruv sifatini oshirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ular yirik aksiyador sifatida kompaniyalarning faoliyatida shaffoflik, hisobdorlik va samaradorlikni talab qiladi. Bu esa investorlar ishonchini mustahkamlaydi hamda fond bozorining yanada rivojlanishiga zamin yaratadi. Natijada, kapital bozorida uzoq muddatli investitsiya muhitining shakllanishi tezlashadi. Shuningdek, institutsional investorlar fond bozorining professional ishtirokchilari sifatida risklarni diversifikatsiya qilish, investitsiya portfellarini samarali boshqarish va moliyaviy instrumentlardan oqilona foydalanish orqali bozor samaradorligini oshiradi. Ularning faoliyati qimmatli qog'ozlar bozorida talabni barqarorlashtirib, yangi moliyaviy instrumentlarning paydo bo'lishiga ham turtki beradi.

Xulosa qilib aytganda, fond bozorida barqaror talabni shakllantirishda institutsional investorlarning roli juda muhim hisoblanadi. Ular bozor likvidligini ta'minlaydi, investitsion jarayonlarni faollashtiradi, korporativ boshqaruvni takomillashtiradi hamda iqtisodiyotning real sektoriga kapital oqimini kuchaytiradi. Shu sababli mamlakat fond bozorini rivojlantirishda institutsional investorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish hamda huquqiy-institutsional bazani takomillashtirish muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentabrdagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-291-son Qarori.*
- 2. Andrei Shleifer, Robert W. Vishny. "The Limits of Arbitrage", The Journal of Finance. – 1997. – Vol. 52.*
- 3. www.uzse.uz- Toshkent Respublika fond birjasi. (2025). "Press-xabar: 9 oy yakunlari 2025". Rasmiy xabar.*